



UDK:1751

Nazira RO'ZIBOYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: naziraruziboeva@mail.ru

Samarqand davlat universitetining professori, f.f.d M.Abdiyev taqrizi asosida

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA IMO-ISHORALARNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Аннотация

O'zbek va fransuz tillari nonverbal muloqotning psixolingvistik parametrlarini o'rganish ikki xil madaniyat doirasidagi nonverbal muloqotning o'ziga xos va umumiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan batafsil qiyosiy tahlilni amalga oshiradi. Imo-ishoralarni qo'llashdagi o'xshashlik va farqlarga alohida e'tibor beriladi. Madaniy o'ziga xoslik nonverbal muloqotga qanday ta'sir qilishini va bu bilimlarni madaniyatlararo o'zaro ta'sirni yaxshilash uchun qanday qo'llash mumkinligini o'rganadi. Tahlil madaniyatlar o'rtasida muvaffaqiyatli almashinuv uchun nonverbal jihatlarni ko'rib chiqish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: imo-ishoralar, psixolingvistika, nonverbal muloqot, verbal muloqot, tana tili, kinesika, milliy imo-ishoralar.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЖЕСТОВ В УЗБЕКСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Исследование психолингвистических параметров невербального общения узбекского и французского языков проводит детальный компаративный анализ, направленный на выявление уникальных и общих черт невербального общения в рамках двух различных культур. Особое внимание уделяется сходствам и различиям в использовании жестов. Изучается, как культурная специфика влияет на невербальное общение, и как эти знания могут быть применены для улучшения межкультурного взаимодействия. Анализ показывает значимость учета невербальных аспектов для глубокого понимания между культурами и успешного межкультурного обмена.

Ключевые слова: жесты, психолингвистика, невербальное общение, вербальное общение, язык тела, кинесика, национальные жесты.

PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS OF GESTURES IN UZBEK AND FRENCH LANGUAGES

Annotation

The study of the psycholinguistic parameters of nonverbal communication in the Uzbek and French languages conducts a detailed comparative analysis aimed at identifying unique and common features of nonverbal communication within two different cultures. Particular attention is paid to the similarities and differences in the use of gestures. Explores how cultural specificity influences nonverbal communication and how this knowledge can be applied to improve intercultural interaction. The analysis shows the importance of considering non-verbal aspects for deep understanding between cultures and successful intercultural exchange.

Key words: gestures, psycholinguistics, nonverbal communication, verbal communication, speech means, body movements, kinesics, national gestures.

Kirish. Verbal muloqot jarayonida nonverbal ko'rinishlar doimo mavjud bo'lib, ular bir qarashda ikkinchi darajali ma'lumot manbai bo'lib ko'rinsada ko'pincha muloqotning muvaffaqiyati va samaradorligi ularga bevosita bog'liqdir. Ular bizga suhbatdosh haqida yani uning niyatlari, hissiy holati, xarakteri va biror narsaga yoki kimgadir munosabati haqida muhim axborotlarni beradi. Odatda biz muloqot jarayonida qo'llaydigan nonverbal hatti-harakatlar ya'ni imo-ishoralar o'z-o'zidan paydo bo'ladi va ko'pincha bevosita ravishda ishlab chiqariladi.

Nonverbal muloqotning bu jihati uzoq vaqtdan beri olimlarni qiziqitirib kelgan. O'tgan asrda tadqiqotchilar imo-ishoralar insonning shaxsiyati va hissiy holati haqida ko'p narsalarni ochib berishi mumkinligini aniqlashdi. Hozirgi kunda imo-ishoralar psixologiyasi - bu hamma odamlar uchun tushunarli bo'lgan universal imo-ishoralarni ham, ma'lum madaniyatlarga xos bo'lgan imo-ishoralarni ham o'rganadigan to'liq huquqli fandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Klassik tadqiqotlar, masalan, A.Pizning "Tana tili" kitobida qo'l imo-ishoralari aniq nimani anglatishini batafsil tushuntiradi.

60-yillarning o'rtalarida eng yirik sotsiologik harakatlardan biri bo'lgan ramziy interaksionizm doirasida,

R.Birdwhistel birinchilardan bo'lib tana harakatlari, imo-ishoralari va pozitsiyalarini hisobga olgan holda muloqotni o'rgangan. U nonverbal muloqotni o'rganish yo'nalishini yaratdi va uni "kinesika" (qadimgi yunoncha - harakat) deb atadi.[6.93] Albert Mehrabian axborotlarni uzatish verbal vositalar (faqat so'zlar) orqali 7%, ovoqli vositalar orqali (shu jumladan ovoz ohangi, ovoz intonatsiyasi) 38% va nonverbal vositalar orqali 55% ni tashkil qilishini aniqladi [2.72-76].

1970-1980-yillardan boshlab bir qancha tadqiqotchilar nutqga tasodifiy hamroh bo'ladigan, koverbal deb ataluvchi qo'l imo-ishoralarni o'rganishgan. Bu imo-ishora va nutq bir xil kognitiv strukturadan kelib chiqadi va tafakkur bilan mustahkam bog'langan[1].

Imo-ishora o'zbek tilining izohli lugatida quyidagicha ta'riflanadi: -Imo-ishora tili (tlsh.) nutq tovushlarisiz, imo-ishora bilan fikr anglatishga asoslangan til bo'lib muayyan harakat bilan ishora, shama qilish; Imo - Biror narsa bildirish, undash va sh.k. uchun bosh irg'atib yoki yuz, ko'z, qosh, qo'l harakati bilan qilingan ishora, im[4.203].

"Jest" tushunchasi (lotincha gestus - tana harakati) inson tanasining yoki uning biron bir qismining tegishli ma'noga ega bo'lgan muayyan harakatini anglatadi. Ko'pincha va keng qo'llaniladigan imo-ishoralar nutq ritmiga,

ovozning kuchiga, ba'zi so'z va iboralarni ta'kidlash va urg'u berish uchun tana va qo'llarni parallel ravishda ishlatishni o'z ichiga oladi. Turli mamlakatlarda imo-ishoralar noverbal muloqotning asosi bo'lib, turli xil ma'no va talqinlarga ega: bir mamlakatda ma'lum bir imo-ishora ijobiy talqin etilsa, boshqasida qo'pol va haqorat sifatida talqin qilinishi mumkin. Insonning ichki dunyosi va uning tana tili va imo-ishoralari o'zaro bog'liqdir. Ko'pincha inson reaksiyalarining refleksli tabiati unga o'z imo-ishoralarni, tana holatini va yuz ifodalarni to'liq boshqarishga imkon bermaydi.

Jest" atamasi ba'zan tananing barcha harakatlariga, shu jumladan yuz ifodalari va pantomimalarga nisbatan qo'llaniladi va qo'l harakatlari uchun imo-ishora (jestikyulatsiya) tushunchasi qo'llaniladi [3.250].

O'tgan asrning 60-yillarida eng yirik sotsiologik harakatlardan biri bo'lgan ramziy interaksionizm doirasida R. Birdwhistel kontsepsiyasi taqdim etildi, u birinchilardan bo'lib tana harakatlari, imo-ishoralari va pozitsiyalarini hisobga olgan holda muloqotni o'rgangan. U noverbal muloqotni o'rganish yo'nalishini yaratdi. Uni "kinesika" (qadimgi yunoncha - harakat) deb atadi [10]. U "kin" yoki kinemani elementar semantik birlik sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi (tilshunoslikdagi fonemaga o'xshash (analogi)). R. Birdwhistel odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xilma-xilligiga qaramay, barcha ramziy o'zaro ta'sirlar bir xil cheklangan ko'rinishga ega bo'lib, inson tanasining elementar harakatlarini 50-60 foyizi imo-ishoralar yoki tana holatidan iborat, degan fikrni ilgari surgan. Mutaxassislarining ushbu g'oyalari tadqiqot metodologiyasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Suhbat paytida qo'l imo-ishoralari millatlararo muloqot vositalaridan biri bo'lib, boshqa odamlarni hatto ularning tilini bilmasdan ham tushunishga yordam beradi. Ko'pincha imo-ishoralardan foydalanish ham ehtiyotkorlikni talab etadi, chunki ular turli millat vakillari uchun mutlaqo qarama-qarshi ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ko'pgina asosiy imo-ishoralar butun dunyoda bir xil ekanligiga ishoniladi. Biroq, o'ziga xoslik "milliy imo-ishoralar" ham mavjud bo'lib bu turli madaniyatlar bir xil tushunchalarni ifodalash uchun turli imo-ishoralarni qo'llashida namoyon bo'ladi.

Muloqot paytida imo-ishoralardan jonli foydalanish nutqning hissiy boyligini oshirishga yordam beradigan va uni unutilmas holga keltiradigan vositadir. Qo'l harakati ya'ni imo-ishoralar nafaqat aytilgan narsaning mazmunini ifodalashga, balki so'zlovchining barcha his-tuyg'ularini etkazishga yordam beradi, bu esa tinglovchilar tomonidan axborotni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi. Biroq, haddan ziyod ishlatilgan imo-ishoralar tinglovchilarni aylantirgan gaplarning mohiyatidan chalg'itishi mumkin. Haddan tashqari imo-ishoralar vizual idrokni kuchaytiradi va uzatilgan axborotni tushunishni qiyinlashtiradi. Imo-ishoralarning optimal soni yanada muvozanatli taassurot yaratadi va muloqot samaradorligini oshiradi.

So'zga hamroh imo-ishoralar koverbal ham deb yuritiladi va ular ko'expressivdir, ya'ni u so'zlovchi muhim deb hisoblagan gapning elementi bilan hamohang tarzda namoyon bo'ladi. Imo-ishora va so'z bir vaqtning o'zida bir xil fikrni aks ettiradi, lekin bir xil jihatlarni ifodalash shart emas. Vizual ma'lumotni etkazish uchun imo-ishoralardan foydalanish juda keng tarqalgan, masalan, biz biron bir shakl, hajm yoki obyektning joylashuvi haqida gapirmoqchi bo'lganimizda ularidan foydalanamiz. Masalan biz, "Ko'zoynaging u yerda" yoki "bu erda", deyidigan bo'lsa bizning so'zlarimizga joyni ko'rsatuvchi imo-ishora hamrohlik qiladi (ko'pincha ko'rsatkich barmoq orqali). Shunday qilib bizning suhbatdoshimiz ko'rib turgan imo-ishoralari orqali tegishli axborotni sharhlaydi. Bu turli xalqlar va turli yoshdagilar uchun ham deyarli bir xil. Masalan, yosh bolalar

ular uchun yangi va ayniqsa murakkab noverbal axborotni agar ularga imo-ishoralar hamroh bo'lsa yaxshi tushunishadi.

Imo-ishoralarning izchilligini tushunish, biz muloqot qilayotgan odamning pozitsiyasini aniqroq ko'rishga imkon beradi. Bizning sozlarimizni suhbatdoshimiz qanday qabul qilinyotganligini ya'ni ma'qullash yoki dushmanlik bilan, ochiq yoki yopiq, yoki zerikish bilan tushunishimiz mumkin. Masalan, noverbal muloqot bo'yicha yetakchi mutaxassislaridan biri Stiven Bunard Fransiya prezidentlarining o'ziga xos imo-ishoralarni o'rganar ekan, quyidagi xulosaga keldi: "Fransua Olland va Nikola Sarkozi o'ng qo'l bilan gapirishga moyil bo'lgan bo'lsa, Emmanuel Makron chap qo'l bilan gapiradi: "O'ng qo'l ishtirish uchun ishlatiladi, chap qo'l esa rahmdillik va samimiyligni ifodalaydi" [6].

Ko'pgina asosiy imo-ishoralar butun dunyoda bir xil ekanligiga ishoniladi. Biroq, o'ziga xoslik "milliy imo-ishoralar" ham mavjud bo'lib bu turli madaniyatlar bir xil tushunchalarni ifodalash uchun turli imo-ishoralarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Biroq bizni alohida, ikki xil madaniyat vakillari - o'zbek va fransuz tillari o'rtasidagi muloqot jarayonida noverbal elementlarning namoyon bo'lishi qiziqtiradi. Jumladan, fransuzlar qo'rquvni ifodalayotganlarida ikkala qo'llarini biroz oldinga cho'zib har ikkala qo'lini kaftlarini yuqoriga qaratgan holda barmoqlarini bosh barmoqlari atrofiga yig'adilar biroq, bu ishora o'zbeklarda sabr qil, ovozingni o'chir, jim bo'l ma'nosini ifodalashi yoki qo'pol ma'noda tushunilishi mumkin. Bu ishora ko'pincha o'zbeklarda bir qo'lda amalga oshiriladi. Fransuz biron bir g'oyani ahmoqona deb bilsa boshiga uradi, o'zbeklarda bu ishora qo'llanilmaydi. Fransuzlar xayrlashishda kaftlarini yuqoriga ko'tarib, barmoqlarini harakatga keltiradilar. Fransuzlar suhbatdoshiga ishonchsizlikni bildirganlarida o'ng qo'l ko'rsatkich barmoqlarini ko'zining pastki qovog'iga bosib bir oz pastga tortadi. Bu "Men senga ishonmayman" ma'nosini ifodalaydi. O'zbeklarda bunday ishora qo'llanilmaydi lekin shunga o'xshash ishora mavjud bo'lib bunda ko'rsatkich barmoq yonoq ustiga qoyiladi va bu uyat ma'nosini ya'ni "Uyat, uyalgin, yuzing bormi?" kabi ma'nolarni anglatadi. Fransuzlar xayrlashishda kaftlarini yuqoriga ko'tarib, barmoqlarini harakatga keltiradilar. O'zbeklar esa shu holatda kaftlarini oldinga va orqaga silkitadilar.

O'zbeklarda mavjud bo'lmagan va faqat fransuzlarga xos bo'lgan imo-ishoralar:

"Og'zingni yum" imo-ishorasi: ko'rsatkich, o'rta, nomsiz va kichik barmoqlarni birlashtirib bosh barmoqqa keskin bog'lanadi, xuddi o'rdak tumshug'i kabi ma'nosi - "jim / ovozingni o'chir / uningni o'chir!"

"Ketdik" Imo-ishorasi: kaft bilan ikkinchi qo'lining orqa tomoniga zarb bilan urish; ma'nosi - "Ketdik bu erdan / surdik / yakunlaymiz."

"Stakan" imo-ishorasi: odam mushtini burniga olib borib chagga aylantirishi; ma'nosi - "U mast, u o'lgudek mast" (kimdir haqida).

"Ko'proq yoki kamroq" imo-ishorasi: kaftini pastga qaratgan holda barmoqlarni yoyib, qo'lni yuqoriga va pastga silkitish; ma'nosi - "taxminan / ko'proq yoki kamroq /."

"Ko'rsatkich barmog'i" imo-ishorasi: ko'rsatkich barmog'i yuqoriga ko'tarilgan holatda; ma'nosi kontekstga bog'liq, lekin ko'pincha bu atrofda qilargacha "Jim bo'l / diqqat!" ma'nosida qo'llaniladi.

Ammo har xil madaniyatlarda individual imo-ishoralarning o'ziga xos ma'nosi har xil bo'lishiga qaramay, barcha madaniyatlarda o'xshash imo-ishoralar mavjud bo'lib, N.I. Smirnov imo-ishoralarni quyidagicha tasniflaydi:

- kommunikativ (salomlashish, xayrlashish imo-ishoralari, diqqatni jalb qilish, taqiqlash, tasdiqlovchi, salbiy, so'roq va boshqalar); Bu informatif bo'lib turli axborotlarni

beradi. I.Kant qo'lni "miyaning ko'rinadigan qismi" deb ataganligi bejiz emas. Masalan biznes olamida qo'l siqish nafaqat salomlashish, balki kelishuv ramzi, biznes sherikga ishonch va hurmat belgisi sifatida ham qo'llaniladi.

-modal, ya'ni, baholash va munosabat bildirish (ma'qullash, qoniqish, ishonch va ishonchsizlik imo-ishoralari va boshqalar); Masalan, qo'llarini orqasiga qo'yib, bilaklarini bog'lash - o'zini ustunligini his qilish; burun yuqori qismini "chimchilash" - bu uning diqqatini chuqur jamlaganligining belgisi va hokazo.

- nutq kontekstidagina ma'noga ega bo'lgan tasviriy imo-ishoralar. Masalan, qo'lingiz bilan yo'nalishni ko'rsatish.[5. 210-247]

O'zbek tilida u yoki bu imo-ishorani nomlaydigan erkin iboralar asosida paydo bo'lgan juda ko'p barqaror iboralar mavjud. Ular frazeologik birliklarga aylanib, odamning holatini, uning hayratini, befarqligini, xijolatini, noroziligini va boshqa his-tuyg'ularini, shuningdek, turli harakatlarni ifodalaydi. Masalan: boshni pastga egish, boshni aylantirish, boshni ko'tarish, qo'lni ko'tarish, qo'lni yoyish, qo'lni tushirish, qo'lni ko'ksiga qo'yish, barmoqni silkitib qo'rqitish. Evropada italiyaliklar eng ko'p imo-ishoralardan

foydalanadilar: masalan, ular ayol go'zalligiga qoyil qolishlarini kamida beshta usulda ifodalaydilar. Bir soatlik tasodifiy muloqotda fransuz o'rtacha – 120 ta imo-ishora qiladi o'zbeklar esa bu borada fransuzlardan ortda qoladi.

Noverbal muloqot - shaxs o'zining "men"ini ifodalash, shaxslararo ta'sir va munosabatlarni tartibga solish, aloqa hamrohining qiyofasini yaratish va verbal xabarni aniqlashtirish vazifasini bajaradigan vositalardan biri bo'lib imo-ishora tilini o'rganish nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki professional sohada - muzokaralar, savdo, vositachilikda ham yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Noverbal signallardan xabardor bo'lish suhbatdoshingizni yaxshiroq tushunishga, o'zaro tushunishni yaxshilashga va pirovardida nizolarga yanada samaraliroq yechim topishga imkon beradi. Shunday qilib, tana tilini talqin qilish mahoratiga ega bo'lish bizning muloqotimizni boyitib, yanada uyg'un munosabatlarni yaratishga yordam beradigan qimmatli mahoratdir. Xulosa qilib aytganda, imo-ishoralar psixolingvistik tahlilning muhim jihatini ifodalaydi, bu nafaqat muloqotni, balki axborotni tushunish, qayta ishlash va uzatishni ham osonlashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. David McNeill, Hand and Mind: What gestures reveal about thought, Chicago, The University of Chicago Press, 1992.
2. Игебаева Ф.А. Язык жестов в деловом общении. /Актуальные вопросы профессиональной коммуникации в государственном и муниципальном управлении. Сборник научных статей научно-практической конференции. – "Экономика и социум" №1(20) 2016 www.iupr.ru 1112 Уфа: БАГСУ, 2010. – С.72 - 76)
3. Piz A. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyolmatbaa ijodiy uyi, 2015. – 4bet.
4. Лабунская В.А. Невербальное поведение / В.А. Лабунская. Ростов н/Д., 1986. – 250с
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008) 2036ет."Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти.
6. Смирнова Н.И. Сопоставительное описание элементов русской и английской кинетической коммуникации. В кн.: Национально-культурная специфика речевого поведения. - М.: Наука, 1977. - С.210-247.
7. Рузибоева Н.К. Исследование психолингвистических параметров невербальной коммуникации на материале узбекского и французского языковых континуумов // Журнал гуманитарных и естественных наук 2024. – № 9 (04). – С. 90-100
8. <https://www.bfmtv.com/politique/ce-que-traduit-la-gestuelle-d-emmanuel-macron-pendant-son-allocation>
9. Axmedova M.X. Jamiyat taraqqiyotining tildagi o'zgarishlarga ta'siri // Imiy tadqiqot va innovatsiya. 2023/4/10 №2. B 21-26
10. Frolova M.M. Psixologiya. Uchebnoye posobiye dlya VUZov - M.,2008.